

DONGA ZARARLI TASIR KO'RSATUVCHI PESTITSIDLAR, NAMLIK, VA CHANG ARALASHMA ZARRACHALARNI OLIB TASHLASH VA QAYTA ISHLASH .

Bektoshev Oybek Qosimjon o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.

Email: bektoshev.oybek@mail.ru

Bektosheva Shohsanam Ahrorjon qizi

Sultonova Dilshodaxon Qosimjon qizi

Annotasiya: *Maqolada donni sifatiga tasir ko'rsatuvchi omillar va ularni bartaraf etish qayta ishlov berish, saqlash, uni turli chiqindilardan ajratish, sof homashyo holatiga olib kelish, va ajratilgan chiqindilarni tashqi atrof muhitga chiqmasdan ushlab qolish ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Donga zararli tasir ko'rsatuvchi pestitsidlar, namlik, namlikni ketkazish, chang aralashmalari ularni tutib qolish va qayta ishlash utilizatsiya*

УДАЛЕНИЕ И ПЕРЕРАБОТКА ВРЕДНЫХ ЧАСТИЦ ПЕСТИЦИДОВ, ВЛАГИ И ПЫЛИ.

Аннотация: *В статье рассмотрены факторы, влияющие на качество зерна, его отбраковка, обработка, хранение, отделение его от различных отходов, доведение до состояния чистого сырья, сохранение отделенных отходов без выброса их в окружающую среду.*

Ключевые слова: *Хранение зерна, сортировка зерна, предварительная обработка, оборудование для сепарации различных видов зерна и пылящего зерна.*

REMOVAL AND PROCESSING OF HARMFUL PESTICIDE PARTICLES, MOISTURE AND DUST.

Abstract: *The article discusses the factors influencing the quality of grain, its rejection, processing, storage, separating it from various wastes, bringing it to the state of pure raw materials, preserving the separated waste without releasing it into the environment.*

Key words: *Grain storage, grain sorting, pre-processing, equipment for separation of various types of grain and dusty grain.*

KIRISH

Insoniyat hayotida donning foydasi juda katta chunki insoniyatning oziq-ovqatlari hisoblangan non va non mahsulotlari, makaron, vermishel, va har xil yormalar dondan olinadi. Shuning uchun aholini mana shu extiyojini qondirish uchun don yetishtirishda muttasil ko'paytirish davr talabi bo'lib qoladi. Yetishtirilgan donni nest-nobud qilmasdan

saqlash va uni qayta ishlab boshqa mahsulotlar olish muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda donlardan tayyorlangan yormalar odamlarni kundalik ozuqasi bo'lib hisoblanadi. Ikkilamchi mahsulotlari esa chorva hayvonlari parandachilik tarmoqlarida ozuqaviy omuxta vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlar ishida bug'doy donining qayta ishlash jarayonidagi harakati va pestitsidlar, chang aralashmalarini mahsulot sifatiga tasiri o'rganildi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, hasharotlar o'rim-yig'imdanda keyin sezilarli darajada oziq-ovqat yo'qotishlariga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlarda taxminan 9% ni tashkil etishi taxmin qilinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 20% yoki undan ko'p. Saqlangan don tarkibidagi pestitsid qoldiqlari don sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Donni ekin maydonlaridan yig'ib qayta ishlovchi korxonalariga olib kelishda namlik, turli chang aralashmalar va pedsidlar qo'shib keladi. Qabul qilish korxonalarida donning sifat ko'rsatkichini aniqlovchi laboratoriyalar tahlili asosida donning dastlabki qayta ishlovi amalga oshiriladi.

Don massasini silosga joylashtirishda o'z-o'zidan saralanishi, 1 kg massali donda quydagicha joylashuv mavjud bo'ladi. Tozza don 7.04gr/l; begona o't urug'ari 0.32; chiqindi oraliq fraksiyalar 0.14%; Yengil aralashmalar 0.55%; Ezilgan donlar 1.84%; boshqalar 0.09%.

1 m³ hajmdagi don massasi og'irligi va g'ovakligi

Yirik boshli g'alla uchun: 250-300kg;

G'ovakligi 70-80 %;

Bug'doy uchun: 730-840kg;

G'ovakligi 35-45%.

Birinchidan donda yod qo'shimchalar turli o't urug'lari, tuproq elementlari va mayda hasharot qoldiqlarini va yetarli darajada pishib yetilmagan kichik o'lchamli donlarini ajratish setkali elavatorida amalga oshiriladi. Don setkali elavatoridan o'tkazilgandan keyin, maxsus sig'imli don saqlovchi siloslarga omborlarga konveyer tizim orqali jo'natiladi. Bu usul oziq-ovqat bozorini insektitsidlarsiz don bilan ta'minlash imkoniyatini beruvchi don texnologiyasining rivojlanishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, Maxsus siloslarda qayta ishlash uchun saqlab turilgan don maxsus donni sifat ko'rsatkichini ta'minlashga ma'sul hodimlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Nazorat davrida donda namlik miqdori belgilangan ko'rsatkichdan yani 12-14% bolganda omborlarda uzoq vaqt saqlanishi mumkin yuqoriligi aniqlansa, zamonaviy don saqlash siloslarida vertikal joylashgan quvursimon qizdirish uskunalari yordamida namlik bug'latish usuli amalga oshiriladi. Qizdirish uskunasi mavjud bo'lmagan don saqlash siloslarida esa maxsus ishlar amalga oshiriladi. Namlik darajasi yuqori bo'lgan silosdan don lentali konveyerga tushiriladi hamda qayta saqlash uchun siloslarga qaytariladi. Shu jarayonda qizigan bo'lgan hom-ashyo namligi ketkaziladi. Ya'ni tabiiy yo'l bilan atrof muhit sharoitida shabodalatish hisobiga namlik miqdori belgilangan miqdorga keltiriladi.

Uchinidan, dondagi chang zarralari ham donning sifatiga tasir ko'rsatadi. Donni elevatoridan o'tkazishda yuzaga kelayotgan chang zarralari so'rib oluvchi ventilyatsiya tizimlariga o'tkaziladi hamda so'rib olingan chang havo aralashma siklonga uzatiladi. Siklonda 5mkm dan katta bo'gan chan zarralari ushlab qolinadi. Chang havo aralashmasidagi 5mkm dan kichik chang zaralari esa Matoli filtr yordamida ushlab qolinadi. Siklonning bunkeriga tushgan chang zarralari ko'zdan kechiriladi. Chang zarralari tarkibda don mavjud bo'lgan taqdirda chorva va parrandalar uchun omuxta ishlab chiqarish sexiga o'tkaziladi

Xulosa.

Donni qayta ishlovchi korxonalarda petsidlar, hasharotlar va namlikni nazorat qilish usullari qo'llanilishi, hamda chang va turi aralashmalardan don tarkibini tozalash sifatli don maxsulotini ishlab chiqarishga asos bo'ladi i Bu o'z navbatida korxonani iqtisodiy samarador holatha ishlashiga oz tasirini o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Салимов ЗюС., Батаев В.В. Повышение эффективности адсорбционной очистки газовых выбросов. Т.:Фан,1992-96с
2. Газоочистное оборудование. Аппарат мокрой очистки газов:Каталог/ЦИНТЕХИМНЕФТЕМАШ. М., 1987.-20с
3. Страус В.В. Промышленная очистка газов. М.:Химия,1981-615 с.
4. Комбинированные методы химической технологии и экологии/ Систер В.Г., Полянин А.Д., Дильман В.В., Вязьмин А.В.:Калуга:Изд-во Н.Бочкаревой, 1999. 336 с.
5. Багатых С.А. Циклонные-пенные аппаратыю Л.: Машиностроение, 1987.-18 с.
6. N.R.Yusupbekov, H. S Nurmuhamadov, S.Z Zokirov Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari Toshkent-2015.
7. M. G'. VASIYEV, Q. O. DADAYEV, I. B. ISABOYEV, Z. Sh. SAPAYEVA, Z. J. G'ULOMOVA. OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI ASOSLARI. TOSHKENT <<VORIS-NASHRYOT>> 2012 45.bet.